

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MANAVIY TAHDIDLAR

*Qarshi shahar 11-maktab
o`zbek tili o`qituvchisi
Aminova Gavhar*

Anotatsiya: Yangi O`zbekistonni barpo etishda yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan asrash eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Albatta, davlatlar orasida olamshumul ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma`rifiy axborotlarning almashinuvi hisoblangan globallashuvning ijobiy jihatlari juda ko`p. Lekin, o`zida milliy chegaralarning yuvilib ketishi kabi xususiyatlarni qamrab olgan globallashuvning bir qator salbiy tomonlari ham mavjudki, bunda xalqimiz tafakkuriga begona bo`lgan turli xil zararli g`oya va mafkuralarning kirib kelishi shulardan biridir.

Kalit so`zlar: globallashuv, ahborot xuruji, strategiya, milliy tarbiya

Bugungi kun globallashuvning jadal bir sur`atlarda rivojlanayotgan bir davridir. Aslini olganda, taraqqiyot bor ekan, globallashuv ham bo`laveradi. Globallashuv jarayoniga qo`shilmaslik yoki uni chetlab o`tishning imkoni yo`q. Shunday ekan, globallashuvning mohiyatini tushunish, uning jamiyatimiz uchun ijobiy va salbiy ta`sirlarini ilmiy jixatdan tadqiq etish g`oyat muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, mamlakat tinchligi va barqarorligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar esa o`z-o`zidan bartaraf etilmaydi. Buning uchun ularga qarshi turish va kurashish talab etiladi. Bu kurashda zamonaviy mexanizm va texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo`llash muhim ahamiyatga egadir. Yoshlarni turli xil mafkuraviy xurujlardan asrash masalasi har doim ham muhim masala bo`lib kelgan. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida ushbu masala ko`pchilik mamlakatlar uchun birinchi raqamli muammolar qatoridan joy olmoqda. Xalqimiz tafakkuriga begona bo`lgan turli xil zararli g`oya va mafkuralarning kirib kelishi shulardan biridir. Xalqimizni, xususan, yoshlarimizni ana shunday begona va zararli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o`rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma`naviyatini tog`dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz kayiqni topshirib qo`yish bilan baravar bo`ladi. Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o`tkazgan va o`tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi. Globallashuv milliy ma`naviyatga ham ta`sir o`tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma`naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo`lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga yetarli ko`mak berishlarini e`tirof etishga

to'g'ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va taxlil qilish zarur. Aynan shu jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilarning to'g'ri yo'l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun imkoniyat yaratish mumkin.

Global taraqqiyot ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Ushbu jarayonning ta'siri sezilmagan biror-bir sohani topish qiyin. Chunki, bugungi davr yirik o'zgarishlarini o'z ichiga olib, ular tez sur'atda dunyoning eng olis burchagida ham aks-sado bermoqda. Bunday barcha uchun umumiy bo'lgan tezkor omil globallashuv nomi bilan atalmoqda. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha talqin etgan: "...globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda"¹. Haqiqatan ham jahon siyosiy maydonidagi muammolar umuminsoniyatga aloqador jihatlar sifatida Yer kurrasi a'zolari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklab, ular o'zaro birlashib, muammolarning maqbul yechimini topishga intilmoqdalar.

O'tgan asrning oltmishinchi yillarida ilmiy-ommabop lug'atlarda globallashuv atamasi paydo bo'lib, ushbu tushunchaga nisbatan turfa qarashlar hamda ushbu kategoriya mazmun-mohiyatini ifodalovchi ilmiy tadqiqotlar vujudga kela boshladi. Natijada ijtimoiy hayot siyosatshunoslik, falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik fanlari oldiga, xususan mazkur loyiha doirasida ham ushbu fenomenni tadqiq qilish, jamiyatning ijtimoiy - siyosiy va madaniy sohalariga ta'sirini aniqlab, ushbu jarayonning ijobiy yoki salbiy mohiyatini belgilash vazifasini qo'ygan Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning demokratik taraqqiyot sharoitida tinchlik, barqarorlik, millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda axborot omili, ommaviy axborot vositalarining ahamiyati, demokratlashtirish sharoitida davlat va xalq muloqoti, g'oyaviy kurash sharoitida davlatning oldida turgan vazifalari haqida yaratilgan konseptual g'oyalari juda ham muhim ahamiyat kasb etadi².

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda 560-II-son «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, 2015 yil 9 dekabrda 365-son «Elektron hukumat to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 fevralda PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.:Ma'naviyat, 2008. – B. 111.

²Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent:O'zbekiston,2016.

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarda taraqqiyot strategiyasi strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ 2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari globallashuv asrida ahborot xavfsizligida juda ham muhim ahamiyatga egadir.

Globallashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. «Globallashuv»ni faqat salbiy hodisa sifatida baholash va unga qarshi turish ijtimoiy hayotdagi turli xil tabiiy, ijtimoiy bog'liqliklarni inkor etishga olib kelishi mumkin³. Globallashuv jarayoni «mafkuralashishdan», uning maqsadlaridan xoli bo'lishi kerak. Globallashuv jarayonining uch o'lchovi: 1. Globallashuv-muttasil davom etadigan tarixiy jarayon; 2. Globallashuv-jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni; 3. Globallashuv-milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni. Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. 2. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor.

Shunday g'oyalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib, kirib keladi. Shunday g'oyalar ham borki, ular «o'g'ri» kabi tuynuk qidiradi. Eshik qoqib keladigan g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu umuminsoniy ezgu-g'oyalardir.

Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T. Levittning 1983 yilda "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilgan maqolasida qo'llanilgan edi. Unda aytilishicha, Globallashuv – transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli – tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni".

Uni o'rganish jarayoni esa Roland Robertson tomonidan 1985 yili uning jahonni yagona bir butun qilish maqsadiga qaratilgan ob'ektiv jarayonlarning majmuasi sifatida aniqlangan davridan boshlangan. Bu tushunchaga ana shu paytdan boshlab to hozirgacha turlicha qarashlar davom etib kelmoqda. Aksariyat ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda globallashuvni lotin tilidagi "globus" shar, fransuz tilidagi "global" umumbashariy so'zlari bilan ta'riflaydilar. Respublikamiz olimlari hamkorligida nashr etilgan "Falsafa qomusiy lug'ati"da "Global (umumbashariy) muammolari" tushunchasi berilgan. Unda bu tushuncha (Fransuzcha global eng umumiy) o'z

³ Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2006. 47- b.

ko'lam, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga dahldor bo'lgan muammo ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek mazkur lug'atda global muammolar keng ma'noda inson va tabiat o'rtasida o'zaro aloqalarning buzilganligini anglatadi, deb ko'rsatiladi hamda bugun jahonda yuzaga kelgan global muammolarning bir nechtasi misol tariqasida keltiriladi.

Rus olimi L.Ye. Grinning fikricha, globallashuv mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir". U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta'rifni beradi. "Globallashuv bu jarayon, uning natijasida dunyo o'zining barcha sub'ektlariga yanada aloqador va yana ham bog'liq bo'ladi"

Rus olimlaridan biri professor A.G. Kosichenko ham globallashuvga jarayon sifatida qaraydi. U shunday yozadi: "Globallashuv ko'p o'lchamli jarayon, u o'z ta'sir doirasiga turli usul va vositalar bilan barcha sohalarni qamrab oladi". Ayni paytda uning fikricha, "iqtisodiyotning o'ziga xos hukmronlik ta'siri bugungi kunda jahon hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lyapti". 2006 yilda "Globallashuv" tushunchasi va uning turli sohalarga o'tkazayotgan ta'sirini aniqlashga bag'ishlangan jahonning yetakchi olimlarining "Globalistika mejdunarodnyy mejdissiplinarnyy ensiklopedicheskiy slovar" tayyorlanib e'lon qilindi Globallashuvning muhim jihati hozirgi kunda xalqaro munosabatlarni boshqarib borishning olamshumul tizimlari yaratilmoqda.

Umuman, globallashuv inson faoliyatining, harakat amaliyotining barcha jihatlarini qamrab olgan.

Globallashuv - nafaqat tashqi tuzilmani, balki davlatlarning va siyosiy xamjamiyatlarning tabiatini ham o'zgartiruvchi jarayon hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda uni ajratib turuvchi ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, milliy xususiyatlari va ular bilan bog'lik bo'lgan mamlakat ichidagi va mamlakatlararo ziddiyatlardan qat'iy nazar, bir tomondan, global tahdidlar va ikkinchi tomondan, jaxon hamjamiyatining barcha tashkil etuvchilarning uzaro bog'liqliklari sharoitida o'sib borayotgan globallashuvning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ijobiy oqibat-lari aks etmoqda.

Globallashuv - tadrijiy jarayon bulib, uning intensivligi dunyoning barcha nuqtalarida turli hil va turli darajada kuzatilmoqda. Mazkur jarayonning keng tus olganligi rivojlanayotgan mamlakatlarga katta taxdid solmoqda. Turli mamlakatlarda ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik oqibatida mojarolar yuzaga kelmoqda. Bunday vaziyatdan esa xalqaro terrorizm ustalik bilan foydalanadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan to'g'ri strategiya tanlab olingan taqdirda, globallashuvning olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini bartaraf etish imkoniyati tug'iladi.

XULOSA

Darhaqiqat, bugungi globallashuv va taraqqiyot asri har kimdan kuchli bilim va tafakkur egasi bo'lishni, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli va maqsadli foydalanishni, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan mustahkam fuqarolik pozitsiyasi bilan yondashishni talab etadi.

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'naviy salohiyat yetakchi o'ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki «fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya» bilan kurashib olg'a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g'oyasi kuchli bo'lsa, o'sha yengib chiqadi. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo'l urayotgan yovuz kuchlar o'z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o'zlariga ma'qul bo'lgan g'oya bilan egallashlari ya'ni buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlari xalqqa ayon bo'lib bormoqda. XXI asr bo'sag'asida tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu davlatning, millatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti, uning kelajagi mazkur millatga xavf solayotgan tahdidni angalab yetish salohiyati va qobiliyati darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.:Ma'naviyat, 2008. – B. 111.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent:O'zbekiston,2016.
3. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2006. 47- b.